

ULUG’BEK HAMDAMNING “MUVOZANAT” ROMANIDA YUSUF OBRAZI

Dilafro‘z QALANDAROVA,

Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti dotsenti, fil.f.f.d. (PhD)

Ozoda ORIFJONOVA,

Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti talabasi

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15878288>

Annotatsiya: Mazkur maqolada Ulug‘bek Hamdamning “Muvozanat” romani bosh qahramoni Yusuf obrazining hayoti, qahramonning o‘y-fikrlari, uning hayotda qolish uchun qilgan harakatlari misolida jamiyatning ijtimoiy ahvoli ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: Ulug‘bek Hamdam, yangi asr adabiyoti, jamiyat, muvozanat, ichki kurash, manfaat, me‘yor, moddiyat, ma‘naviyat.

Аннотация: в данной статье раскрывается жизнь Юсуфа, главного героя романа Улугбека Хамдама «Равновесие», мысли героя, социальное положение общества как пример его усилий остаться в живых.

Ключевые слова: Улугбек Хамдам, литература нового века, общество, баланс, внутренняя борьба, интерес, норма, материальность, духовность.

Abstract: This article reveals the social situation of society through the life of Yusuf, the main character of Ulugbek Hamdam’s novel “Balance”, the hero’s thoughts, and his efforts to survive.

Keywords: Ulugbek Hamdam, new century literature, society, balance, internal struggle, interest, norm, materiality, spirituality.

Ulug‘bek Hamdam “Muvozanat” romanini yozgan paytda O‘zbekiston endi mustaqillikka erishgan bo‘lib, hali dunyo miqyosida o‘z o‘rnini mustahkamlab olishga urinayotgan davrlar edi. Asar voqealarini hech qanday bo‘yoqlarsiz, borini boricha ko‘rsatish hamma yozuvchining ham qo‘lidan kelavermaydi. Adibning yuksak mahorati ushbu asarda bir vaqtda yashayotgan turli taqdirlarning jamiyatdagi o‘rnini, ahvolini yoritadi. Ulug‘bek Hamdam bosh qahramonni aynan ziyolilar orasidan tanlashi, uning yoshini 35 yoshlar atrofida bo‘lishi bejiz emas. “Muvozanat” – muvozanatda yashashga undovchi asar [2. 1.]. Kitobni o‘qigan har bir kishi hayotida muvozanat o‘rnatishga harakat qiladi.

Romanda Yusuf obrazi taqdiri misolida butun jamiyat ahvoli tasvirlanadi. Yusuf erisha olmayotgan moddiy va ma‘naviy me‘yorga butun millat erisha olmayotgandek edi go‘yo. Mustaqil bo‘lishimiz bilan moddiyatga ehtiyoj kuchayib ketib, ma‘naviyatga e‘tibor susaydi. Vatanni mustaqil bo‘lishi uchun eng ko‘p qayg‘urgan ziyolilar hayotda o‘z o‘rnini yo‘qotib qo‘ydi. Yusuf ham ana o‘shalardan biri edi.

“TURKIY XALQLAR ADABIYOTIGA DOIR ZAMONAVIY YONDASHUVLAR: MUAMMOLAR, OMILLAR, YECHIMLAR”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari

“Tavba, odamlar bir-birlari bilan urishib yurishsa, men doim o‘zim bilan o‘zim jang qilaman. Boshqalar bilan olishishga menda na fursat bor va na rag‘bat bor...” [1. 2.].

Yusuf xuddi shunday doim o‘zi bilan o‘zi kurashib yashardi. U mustaqillik buyuk ne‘mat ekanligini, hozirgi tinch kunlariga hech nimani almashib bo‘lmasligini anglab yetsa-da, moddiy ehtiyoj qanchalik kuchaymasin ma‘naviyatni unutmaslik, har ikkisini ham bir maromda olib borish Yusufning qo‘lidan keldi, xolos.

“Yusufning orzusi – bir jamiyat qurilsaki, unda yashayotgan har bir kishi o‘zini, avvalo, inson o‘laroq his qilsa, fuqaro manfaatlari har jihatdan himoya etilsa. Tug‘ilish – musibat emas, saodat, hayot, tirikchilik qilishdangina iborat bo‘lmay – ne‘mat, nihoyat, ikkinchi tomonda o‘sha ruhiy muvozanat - ko‘ngil xotirjamligi bo‘lsa!..”. Bu - olam yaralgandan beri o‘tgan ziyoli borki, barining orzusi” [1. 4].

Professor Dilmurod Quronov ushbu roman haqida o‘z fikrlarini aytib o‘tar ekan, asar bizning avlod ruhiyatiga ko‘zgu tutgandek bo‘lganligini ta‘kidlaydi. Bundan avvalroq yozilgan asarlar o‘tmishning qora kunlari, urushning fojealari haqida so‘zlar ekan, yangi asr adabiyotida urushning qoldirgan musibatlari, kelajak uchun kurash tasvirlanadi.

Yusuf kichikligida tog‘asi Muhammadjon aka bilan tarix haqida suhbatlasharkan, tarixchi bo‘lishni, yangi tarix yozishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘yadi. Yusufning bolaligida yuz bergan voqealar zamirida uning kelajagi yotar edi. Masalan, bir kun u qorda o‘zining izlarini qoldirib, qolganlar endi mening izimdan yuradi deya faxrlanardi o‘z-o‘zidan. Xuddi shu holat uning yangi tarix yozishga bo‘lgan harakati bilan ham bog‘liq. Undan oldin hali hech kim tarixni qayta yozishni, undagi soxta voqealarni oydinlashtirishni o‘ylab ko‘rmagandi. Yusuf birinchilardan bo‘lib bu ishga qo‘l urmoqchi bo‘ldi. Uning moddiy tarafdin oqsashi bunga xalaqit berdi va bu orzu endi butun tarixchilarning vazifasiga aylandi. Avtobus qor ustidan yurib, uni tilimlab tashlaganidan keyingi Yusufning ahvoli qanday bo‘lsa, tarixni o‘rganuvchilar ko‘paygandagi holat ham ana shunday bo‘ldi, ishtiyoq pasaydi, o‘ziga bo‘lgan ishonch kamaydi.

Yusufning Ulug‘tog‘ bilan aloqador xotiralari bor edi. Yoshligida oilaviy sayohatga chiqisharkan, tog‘ga chiqishni, u yerni zabt etishni orzu qilardi u. Orzusiga endi yetishdim deganda lolazorni ko‘radi-yu qaysi biriga borishni o‘ylab qoladi. Kattalar fikri bilan qizg‘aldoqlar yonida qolishadi va Ulug‘tog‘ni zabt etish orzuligicha qolib ketadi uning uchun. Agar Ulug‘tog‘ga eng yuqori cho‘qqi, ya‘ni insonning o‘zini anglab yetishi, haqiqiy “men”ini topishi va hayotda muvozanatga erishishi sifatida qaralsa, afsuski Yusuf hali u maqomga erishmagandi. Yillar o‘tib, barcha qiyinchilikni sabr bilan yenggan Yusuf o‘z orzusiga erishdi, go‘yo.

Romandagi Yusufdan tashqari Said, Mirazim, Amir, Zahro kabi qahramonlar ham doimo ichki kurashlar ta'sirida yashashdi. Ularning har birida nimadir kemtik. Biri molidunyo, boyluk uchun, yana boshqasi ruhining ehtiyoji uchun chirpandi. Adibning o'zi aytganidek, hayotda ma'lum bir holatni saqlab qolishga qaratilgan inson ruhiyati muvozanatni saqlab qololmay, qarsillab sinadi. Yusuf qancha aqlli, mulohazali, iqtidorli bo'lishiga qaramay u ham xuddi shu ahvolga tushdi.

Yusuf qishloqdagi do'sti Sodiq bilan o'tmishning qaytishi yo qaytmasligini suhbatlasharkan, tog'asi Muhammadjonning ochiq ketgan ko'zlari yodiga tushib, beixtiyor ovozi balandlashib ketadi. *“..Agar holimiz hozirgidan besh battar bo'lib, yeyishga bir burda nonimiz qolmasa ham, o'g'limga bitta hapdori sotib ololmay qo'limning kaltaligi o'limiga sababchi bo'lsa-da, ro'zg'orim kuyib kul bo'lib to'zib ketsa ham, yo'q!!! Men o'tmishning qaytib kelishini istamayman, tushunyapsanmi, Sodiq, sen sog'inayotgan, qo'msayotgan imperiyani xohlamayman!...”* [1. 98.].

Yusuf aytgan bu gaplarga taqdir huddiki “labbay” deb javob bergandek edi. Oradan ko'p vaqt o'tmay o'g'li Muhammadjon shifokorlarning badnafsligi, e'tiborsizligi, loqaydligi tufayli vafot etdi. U shunchalik tushkunlikka tushgandiki, atrofdagilarga nisbatan alamzadalik, nafrat paydo bo'ldi unda. Yusuf nafaqat atrofdagilardan, balki o'zidan ham jirkana boshlasa-da, aytgan gaplarini eslarkan, hech qachon bu so'zlaridan afsuslanmasligini, kerak bo'lsa hamma farzandining jonini, o'zining hayotiga nuqta qo'yilganda ham qadim o'tmish qaytishini istamasligini qayta-qayta takrorlardi.

Ulug'bek Hamdam “Vatan haqida qo'shiq” maqolasida shunday deydi:

“...Kuni kecha men poyezdda bir nechta yoshlar bilan gaplashib keldim. Va iqror bo'ldimki, butunlay yangi avlod yetishib kelyapti ekan. Ular tarbiyasida o'tmishga nisbatan keragidan ortiq tanqidiy ruh, bugunni esa behad ideallashtirishga o'xshagan qusurlarni payqagan bo'lishimga qaramay, mulohaza yurita-yurita oxiri sevinib ketdim. Sababki, ular o'tmishni qo'msab qiynalmaydi, bu yoqda do'ppi tor kelganda u yoqqa talpinib, o'zi shundoq ham qiyin ahvolni battar murakkablashtirmaydi. Katta avlodlarga o'xshab har bir kishi o'z botinida ikkiga bo'linib ketmaydi, balki biri u sohada, kimi bunda o'zligini yangi kelajakni bunyod etish ishiga bag'ishlaydi. To ular bor ekan, ertaga qurilayotgan yangi davlatda bugun oyoq osti bo'lib yotgan qadriyatlarining, qonun-qoidalaru tartib-intizomning qaytadan qad rostlashi muqarrar” [3. 55.].

Atrofdagi muammolardan noliyotgan paytimizda shularni eslash kifoya qilsa kerak. Biz hozirgi kunimizga shukr qilishni, undan rohatlanib yashashni o'rganishimiz kerak.

Yusufning akasi Amir bilan bo'lgan suhbatini uning diniy qarashlarini ochib berishda alohida ahamiyatga ega. Roman yozilgan davrda din haqida to'liq va ishonchli

ma'lumotlar yo'q edi. Har kim dinni o'zicha talqin qilar, unga turlicha amal qilardi. Bu borada Yusuf aytgan gaplar barchamizni o'ylashga majbur qiladi.

“...payg'ambarimiz “hech qachon o'lmaydigandek dunyo uchun, ertaga o'ladigandek oxirat uchun yasha” deb bejiz aytmagan. Nazarimda, xuddi shu hikmatda insonning yakka shaxs sifatidagi baxti ham, ko'pchilik ichidagi va ko'pchilikning saodati ham mujassam. Biz esa, ko'pincha, narsa va voqea-hodisalarning zohirinigina ko'rib xulosa hukm chiqarishdan nariga o'tolmaymiz. Ularning aslini, mohiyatini ko'rmaymiz. Hatto bu aqlimizga to'g'ri kelmaydi...” [1. 179.].

Bosh qahramon orzularidan voz kechmadi, uning kelajakka bo'lgan umidi unga barcha sinovlardan o'tishiga yordam berdi. U hayotida ruh va jism tengligiga erishgan edi. Oygul bilan birgalikda oilaviy hayoti yaxshilandi, universitetda dars berishni boshladi, u hayot muvozanatini qayta o'rnatadi.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, har birimiz Yusuf kabi qat'iyatli, aqlli, ma'lum narsalarning ikki tarafini ham ko'ra oladigan, duch kelgan qiyinchiliklarimizni sabr bilan yengib o'tishni va hayotimizda muvozanat o'rnatishni o'rganishimiz kerak. Yusufning yangi tarix yozmoqchi bo'lishi, bu yo'lda to'siqlarga uchrashi, o'g'lining vafoti, oilaviy ahvolining yomonlashishi – bularning barchasi uning komillikka erishishi yo'lida bir vosita vazifasini o'tadi va qahramonni bir paytlar chiqishni orzu qilgan eng oliy cho'qqiga yetib kelishini ta'minladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ulug'bek Hamdam, “Muvozanat”. – T. “Yangi asr avlodi”, 2021-yil.
2. kun.uz. internet nashri. “Muvozanat” – muvozanatga yashashga undovchi asar.
3. Ulug'bek Hamdam. “Vatan haqida qo'shiq”. Maqolalar va davra suhbatlari. Toshkent. 2019-yil.
4. Omanova, M. A. (2023). Perfect human interpretation in alisher navoy's creation. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 11(1), 346-347.
5. Kalandarova, Dilafruz Abdujamilovna. "Research classification of Karl Reichl." *Current research journal of philological sciences* 2.11 (2021): 29-33.
6. Kadirova M.N. Improvement Of Students' Competences on Folklore Genres in Distance Learning Environment. Nizami Tashkent State Pedagogical University lecturer of the Department of Uzbek language and literature. <https://geniusjournals.org/index.php/ejlat/article/view/410>
7. Burxanova, Feruza. "Nazar Eshonqulning ilm-ma'rifat, kitobxonlikka doir qarashlari." *Konferensiyalar/ Conferences*. Vol. 1. No. 12. 2024.
8. Rajabova, Hulkar. "Interpretation of time and space in shorts (Chronotope)(On the example of the stories of the writer Shukhrat Matkarim “Yilon”, “Maqar”, Kholiyor Safarov “Honor and Life”, “Wingless Birds”, “The Saddest Joy”)." *Modern Science and Research* 4.3 (2025): 1332-1340.
9. Махбуба Қадамбоевна Ўразбаева. АЁЛ ХАРАКТЕРИНИ ОЧИШДА БАДИИЙ НУТҚНИНГ ЎРНИ. GOLDEN BRAIN. RAIN ISSN: 2181-41 20. 23.01.10. 193-199- 6. <https://researchedu.org/index.php/goldenbrain/article/view/1179>

**“TURKIY XALQLAR ADABIYOTIGA DOIR ZAMONAVIY
YONDASHUVLAR: MUAMMOLAR, OMILLAR, YECHIMLAR”**
mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari

10. O‘RAZBAYEVA Mahbuba. XX asr ozarbayjon adabiyotida Ganjaviy obrazi tasviri.
“Nizomiy Ganjaviy va xamsachilik an’anasi” mavzusidagi xalqaro ilmiy anjuman materiali.
2024-yil 25-yanvar, 28-32-betlar.
https://oriens.uz/media/conferencearticles/5_ORAZBAYEVA_Mahbuba_28-32.pdf.

